

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING "PADARKUSH" DRAMASIDA
TARBIYA MASALASI****Zulqaynarova Afsona***Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabining o‘quvchisi*

+998996410428

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi tahlil qilinib, asarda o‘sha davrdagi muhit taqazosi bilan farzandlar tarbiyasiga emas, aksincha, ularning jamiyatda ko‘proq pul va obro‘ topishlariga alohida urg‘u berilishi haqida so‘z boradi. Jamiyatda bola tarbiyasiga e‘tiborsizlik Toshmurod va uning do‘stlari obrazi orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Jadidchilik, ilmsizlik, ziyoli, fojia oila tarbiyasi, domullo

Annotation. In this article, Mahmudkhoja Behbudi's drama "Padarkush" is analyzed, and the work emphasizes not the upbringing of children, as required by the environment of that time, but rather their earning more money and prestige in society. The neglect of child-rearing in society is highlighted through the image of Toshmurod and his friends.

Keywords. Jadidism, ignorance, intellectual, tragedy family upbringing, teacher

Аннотация. В данной статье анализируется драма Махмудходжи Бехбуди "Падаркуш," в которой особое внимание уделяется не воспитанию детей в соответствии с требованиями среды того времени, а, наоборот, тому, чтобы они зарабатывали больше денег и авторитета в обществе. Невнимательность к воспитанию детей в обществе освещается через образ Тошмурада и его друзей.

Ключевые слова. Джадидизм, невежество, интеллигенция, трагедия, семейное воспитание, учитель.

Jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudi o‘zbek adabiyotida ilk fojiaviy drama yozgan shaxsdir. U "Padarkush" dramasi orqali o‘zbek teatriga tamal toshini qo‘ydi. Bu asar 1911-yilda yaratilgan va u dastlab "Padarkush" yoxud "O‘qimagan bolaning ahvoli" singari nomlar bilan ijro etilgan. Asarning ikkinchi nomi ham o‘z davrida xalq orasida ma‘lum va mashhur bo‘lgan. Mazkur drama ilm-ma‘rifatni targ‘ib etishda juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Asarda boyning "alifni tayoq demaydurg‘on" nodon o‘g‘li Toshmurod yomon odamlar bilan do‘st tutinib, o‘z uyiga o‘g‘rilikka tushadi. Natijada ota qotiliga aylanadi.

Bilamizki, tarbiya insonning jamiyatda yashashi va shu jamiyatning bir bo‘g‘ini bo‘lishga xizmat qiladigan eng asosiy vositalardan biridir. Tarbiya bo‘lmas ekan jamiyat ham mavjud bo‘lolmaydi. Inson shu tarbiyasi bilangina boshqa mavjudotlardan farqlanadi. Tarbiyani inson dastlab oiladan oladi va shu olingan tarbiya

unga butun umrlik dasturilamal bo‘lib, tarbiyaning poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Agar o‘z vaqtida bu ish amalga oshirilmasa, ya’ni bolalikdan tarbiya shakllanmasa, bora-bora bu boshqa turli yomon illatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Buyuk ma’rifatparvar bu asar orqali boylikdan ilm afzal ekanligini yana bir bor isbotlab berdi. Ya’ni domulloning: “Mulloning ilmi izzat qilinadur” degan gapi orqali insonlar jamiyatda doim birinchi o‘rinda turishi, ilm esa har qachon va har yerda naf berishi aytib o‘tilgan.

Bilamizki, o‘zbek xonadonlarida farzandning ota va onaga itoatkorligi kuzatiladi. Drama markazida esa ilmsiz va tarbiyasiz o‘g‘il orqali o‘sha zamondagi muhit yaqqol ko‘rsatilib, oilada ota-onaning farzandga beradigan tarbiyasi haqida so‘z borgan. Mazkur asarda boy obrazi orqali ota-onalarning farzand tarbiyasi borasidagi xato va kamchiliklari tanqid ostiga olingan. Asar ziddiyatli vaziyatlarni o‘z ichiga jamlagan bo‘lib, bir-biriga qarama- qarshilik, yolg‘on do‘stlik, ma’rifatlilik va johillik, ilmlilik va ilmsizlikkabi illatlar tasviridan iborat. Boyning o‘g‘li Toshmurod do‘st kim, dushman kim ekanining farqiga bormaydi. Shu sababli pul ilinjida do‘st tutungan Tangriqul bilan birgalikda o‘z uyiga o‘g‘rilikka tushishga ham rozi bo‘ladi. Mavzuga diqqat qilinsa, oradan bir asrdan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa ham ayni zamonimizda o‘qimagani va vaqtida olinmagan tarbiya bois turli aldovlarga ishonib, yolg‘on do‘stlar girdobiga tushib, bekorchi vaqtlarini mashiatozlikka bag‘ishlaydigan, oq-qorani farqiga bormay, qabih yo‘llarga kirib qolayotgan yoshlar uchrayotgani fikrimizni dalillaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ilm ham, tarbiya ham, axloq ham ya’ni bularning barchasi insonni komillikka yetaklaydi, ruhan va ma’nan yetuk qilib shakllatiradi. Ham ruhiy, ham ma’naviy bilimga ega inson esa hech qachon tanqid qilinmaydi, yomon yo‘lda yurmaydi, bir so‘z bilan aytganda jamiyatning yuzi, jamiyatni yetaklovchi shamchiroq vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Behbudiy, M. "Padarkush" – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Nashriyoti, 1913.
2. Karimov, A. "Jadidchilik harakati va uning ta’siri" – Toshkent: Fan, 2000.
3. "Yoxud o‘qimagani bolaning holi" – Namangan Davlat Universiteti, 2024.